



ALISHER NAVOIY IJODIDA INSONPARVARLIK G'OYALARI

Ochildiyeva Farangis Haydarzoda

O'zDJTU, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyalarining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Adib asarlarida inson qadri, mehr-oqibat, adolat, saxovat va komillikka intilish kabi fazilatlar keng yoritilgan. Navoiy ijodi orqali insonni ulug'lash, uning qalb pokligi va ruhiy kamoloti asosiy o'rin egallashi ko'rsatib beriladi. Maqolada shoir asarlarining bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyati yuqori ekanligi ochib berilgan*

Kalit so'zlar: *insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat, komillik, saxovat, ma'naviyat, o'zbek adabiyoti, Navoiy ijodi, axloqiy tarbiya, badiiy meros.*

Абстрактный: *В данной статье анализируется художественное выражение гуманитарных идей в творчестве Алишера Навои. В произведениях писателя широко освещены такие качества, как человеческое достоинство, доброта, справедливость, щедрость и стремление к совершенству. Через творчество Навои показано, что главное место занимает прославление человека, его чистоты сердца и духовного совершенства. В статье выявлено, что произведения поэта и сегодня имеют высокую просветительскую ценность.*

Ключевые слова: *человечность, доброта, справедливость, совершенство, щедрость, духовность, узбекская литература, творчество Навои, нравственное воспитание, художественное наследие.*

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiy ijodi insoniyatni ezgulikka chorlovchi bebaho manba hisoblanadi. Uning asarlarida inson qalbi, uning orzu-intilishlari, ruhiy kechinmalari chuqur badiiy ifoda etilgan. Navoiy uchun inson eng oliy mavjudot bo'lib uning qadri har qanday boylikdan ustun qo'yiladi. Har bir davrda jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli Navoiy asarlarida insonni komillikka yetaklash, uni axloqan poklash, mehr-shafqatli bo'lishga undash asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Bu esa shoir ijodini nafaqat badiiy balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim qiladi.

Asosiy qism.

Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyalari turli asarlarida o'z ifodasini topgan. Xususan "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Shoir qahramonlari orqali mehr-oqibat, sadoqat, halollik kabi tushunchalarni targ'ib qiladi. U insonni faqat tashqi ko'rinishi bilan emas balki uning qalbi va amallari bilan baholash kerakligini uqtiradi.



Masalan “Hayrat ul-abror” asarida adolat va to‘g‘rilik masalalari keng yoritiladi. Shoir insonlarni bir-biriga mehr bilan munosabatda bo‘lishga chaqiradi. Zulm va nohaqlikni qoralab adolatni jamiyatning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadi.

“Farhod va Shirin” dostonida esa muhabbat va fidoyilik orqali insonparvarlik g‘oyalari ochib beriladi. Farhod obrazi orqali insonning chinakam insoniyligi uning boshqalar uchun qilgan yaxshiliklari bilan o‘lchanishi tasvirlanadi. U o‘z manfaatidan ko‘ra boshqalarning baxtini ustun qo‘yadi.

Navoiy ijodida saxovat va muruvvat masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Shoir boylikni emas balki insoniylikni ulug‘laydi. Unga ko‘ra haqiqiy boylik bu insonning qalb boyligidir. Shu bois u o‘z asarlarida kambag‘allarga yordam berish, mehr ko‘rsatish, yaxshilik qilish kabi fazilatlarni targ‘ib etadi.

Shoirning g‘azallarida ham insonparvarlik ruhi sezilib turadi. U sevgi orqali inson qalbini poklash, uni yuksak ma‘naviyat sari yetaklash g‘oyasini ilgari suradi. Navoiy uchun sevgi bu faqat ikki inson o‘rtasidagi tuyg‘u emas balki butun borliqni anglash va unga mehr bilan qarash vositasidir.

Navoiy asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning fikrlari hozirgi jamiyat uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi chunki insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, hurmat va adolat masalalari har doim dolzarb bo‘lib qoladi Adib o‘z ijodi orqali insonni ulug‘lash, uni qadrlash va unga yaxshilik qilish g‘oyalarini targ‘ib qiladi.

Bu esa yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan Navoiy asarlari nafaqat adabiy meros balki hayotiy qo‘llanma sifatida ham xizmat qiladi. Navoiy ijodining yana bir muhim jihati shundaki, u insonparvarlikni faqat so‘zda emas, balki amaliy hayotda ham namoyon etishga chaqiradi.

Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi sifatida ham xalq manfaatini ko‘zlab ish olib borgan. U kambag‘allar, yetimlar va muhtojlarga yordam berishni insoniy burch deb bilgan. Bu esa uning ijodida ilgari surilgan g‘oyalar bilan amaliy faoliyati o‘rtasida uyg‘unlik borligini ko‘rsatadi.

Shoir asarlarida ilm va ma‘rifat masalasi ham insonparvarlikning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi.

U ilmli insonni jamiyatning eng foydali a‘zosi deb hisoblaydi. Ilm orqali inson o‘zini anglaydi, boshqalarga foyda keltiradi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Shu bois Navoiy yoshlarni ilm olishga, o‘z ustida ishlashga undaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda Alisher Navoiy ijodi insonparvarlik g‘oyalariga boy bo‘lib unda insonni ulug‘lash, mehr-oqibatni targ‘ib qilish, adolatni qaror toptirish asosiy o‘rin egallaydi.

Shoir asarlari orqali insonni komillikka yetaklash g‘oyasi ilgari suriladi va bu bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Navoiy merosi yosh avlodni ma‘naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.



Uning asarlari insonni yaxshilikka undaydi, qalbni poklaydi va hayotga bo'lgan qarashlarni ijobiy tomonga o'zgartiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Alisher Navoiy – “Xamsa”
- 2.Alisher Navoiy – “Hayrat ul-abror”
- 3.Alisher Navoiy – “Farhod va Shirin”
- 4.O'zbek adabiyoti tarixi darsliklari